

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

RUSTAMOV G'YOS SADRIDINOVICH

**OROLBO'YI MINTAQASIDA QUM-CHANG BO'RONLARINING
SHAKLLANISHI VA TARQALISHINI MODELLASHTIRISH**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (Doctor of Phlosofy) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (Doctor of Phlosofy) диссертации
Contents of the Doctoral (PhD) Dissertation Abstract

Rustamov G‘iyos Sadridinovich

Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarining shakllanishi va tarqalishini
modellashtrish..... 3

Рустамов Гиёс Садридинович

Моделирование формирования и распространения песчанно-пыльных
бурь в регионе Приаралья..... 25

Rustamov G‘iyos Sadridinovich

Modeling the formation and propagation of sand and dust storms in the Aral
Sea region 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

RUSTAMOV G'İYOS SADRIDINOVICH

**OROLBO'YI MINTAQASIDA QUM-CHANG BO'RONLARINING
SHAKLLANISHI VA TARQALISHINI MODELLASHTIRISH**

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №V2024.1.4.PhD/T486 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) veb-sahifada ecoilm.uz va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Samiyev Luqmon Nayimovich texnika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Erkabayev Furqat Ilyasovich, texnika fanlari doktori, professor Musayev Ma’rufdjon Nabiyevich texnika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.18/30.11.2022.T.153.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100043, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor shohko‘chasi, 7a uy. (tel: (71) 277-69-83; faks: (71) 277-89-22; e-mail: eco_ilm@umail.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100043, Toshkent sh., Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi 7A uy, tel. (+99871)-277-69-83, faks: 277-89-22, e-mail: ecoilm@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ da tarqatildi.
(2024 yil _____dagi № __ raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Pulatov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
Kengash raisi, t.f.d., dotsent

S.S. Buriyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash kotibi, q.x.f.n., dotsent

Sh.O. Muradov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zaharli chang, qum va tuz aralashmasidan iborat bo‘ronlarining atmosfera havosini ifloslanishi, uning ekologiya va atrof-muhitga ta‘sirini baholash hamda ularni hududiy maydonlarga tarqalishini hisoblash masalalarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. «Dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi sharoitida qum-chang bo‘ronlarining hosil bo‘lishi, tarqalish sharoitlarini o‘zgarishi hamda ushbu oqibatlarining salbiy ta‘sir doirasini ortishi va boshqa kutilmagan oqibatlarga olib kelishining oldini olishga qaratilgan mintaqaviy modellar ishlab chiqilgan va mavjud turli xil modellarni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi hamda amaliyotga joriy etilishini taqozo etmoqda. Shu jihatdan, kuchli qum-chang bo‘ronlarining hosil bo‘lish sharoitlarini tahlil qilishning samarali usullari, zararlangan hududlarda ushbu hodisani boshqarish va chang, qum zarrachalarini tarqalishni hisoblash usullarini ishlab chiqish hamda mazkur usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda qum-chang bo‘ronlarining shakllanishini va tarqalishi bo‘yicha 25 tadan ortiq global yoki mintaqaviy miqyosda modellar mavjud. Shu jumladan iqlim sharoiti va geografik muhitini hisobga olgan holda qum-chang bo‘ronlarini hosil bo‘lishi va tarqalishi natijasida atrof-muhitga ta‘sirini baholash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, qum-chang bo‘ronlarining shakllanishi va tarqalishi bilan bog‘liq mexanizmlar, hududdagi ekologik vaziyatdan kelib chiqqan holda ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlarini qurishning yangi mezonlarini ishlab chiqishda, chang va qum bo‘ronlarining hosil bo‘lishi va tarqalish hududlarini prognozlash uchun dasturiy ta‘minot ishlab chiqishda va jarayonni modellashtirish yoki model aniqligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, qum-chang bo‘ronlarini iqlim parametrlari, geografik sharoit va chang zarrachalarni fizik-mexanik tarkibini inobatga olgan holda hisoblash usuli hamda qancha masofaga tarqalish traektoriyasini aniqlash usullariga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda qum-chang bo‘ronlarining hosil bo‘lish sharoiti va tarqalish hududlarini bashorat qilish uchun turli xil modellashtirish tizimini ishlab chiqish va salbiy ta‘sirlarni oldini olishda yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda qo‘llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston – 2030 strategiyasida, jumladan «69-maqсад: Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish»¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, statsionar bo‘lmagan modellashtirish tizimini ishlab chiqish va prognozashtirish mexanizmlarini tadqiq qilish, tadqiqot natijalari asosida yangi mezonlarni belgilash uchun xulosalar taqdim qilish, hududdagi ekologik holatning xavflilik darajasiga qarab ijtimoiy va

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoniga.

ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish mexanizmini ishlab chiqish, chang bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish mintaqalarini prognozlashtirishning dasturiy ta‘minotini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni, qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining V.«Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chang va qum zarrachalarini zamonaviy dasturlarda hisoblash va atmosferaga tarqalishi kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan A.M.Vadie, M.Mansoor, S.Ch.Ponnappa, X.Fengjin, Z.Caiping, L.Yaoming, H.Shen, J.Abuduwaili, A.Samat, M.Long, G.Viggs, S.Lohara, J.Wegerdt, M.Joost, I.Small, R.Hubbard, Han Zhiwen, Wang Tao, Sun Qingwei, Dong Zhibao, Vang Xunming, N. Ravshanov, B.E.Nishonov, L.Yu.Shardakova, A.R.Axmedova, V.A.Duxovniylar ilmiy tadqiqotlar olib borgan va ma‘lum bir ijobiy natijalarga erishilgan.

Orol dengizi havzasida qum-chang bo‘ronlarining hosil bo‘lish va tarqalishida atrof-muhitga ta‘siri va tarqalish usullarini hisoblash bo‘yicha A.Aishajiang, J.Abuduwaili, X.Hailiang, Z.Xinfeng, L.Xinghong, A.A.Samania, S.Dadfarb, A.Shahbazi, Yaping Shao, Eunjo Jung, L.M.Leslie, P.J.Prakash, G.Stenchikov, N.M.Ravshanov, D.K.Sharipov, D.Axmedov, N.Narzullaeva, D.D.Akhmedov, M.L.Arushanov, B.Nishonov, L.Yu.Shardakova, B.Telemuratova va boshqalar yuqoridagi masalalarni yechishda salmoqli natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, atmosferaga chang va qum zarrachalarni tarqalishida moddalarning konsentratsiyasi, ob-havo va iqlim sharoiti, hudud geografiyasi, zarrachalarning fizik-mexanik xossalarni inobatga olib atrof-muhitga tarqalishidagi muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green Universiteti) faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-174-sonli qarori, Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilayotgan maqsadli ilmiy loyiha - «Orolbo‘yi mintaqasi uchun chang bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish mintaqalarini prognozlashtirish modelini ishlab chiqish» (2023-2025 yy) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlari yuz berishining shart-sharoitlari va tarqalishini modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qum-chang bo‘ronining shakllanishi va tarqalishi bilan bog‘liq mavjud tadqiqotlar tahlili;

Orolbo‘yi mintaqasida to‘plangan tarixiy meteorologik (harorat, shamol tezligi va yo‘nalishi, yog‘ingarchilik, namlik), aerologik, tuproq, chang bo‘ronlari vaqti va davomiyligi, yer yuzasi relyefi ma’lumotlari tahlili;

Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarining shakllanish sharoitlarini baholash;

Orolbo‘yi mintaqasidagi nostatsionar manbalardan qum-chang bo‘ronlarining hosil bo‘lish sharoitlari va tarqalish hududlarini modellashtirish;

Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlari paytida atmosferada hosil bo‘lgan zarrachalarning hududlarda tarqalishini modellashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orolbo‘yi mintaqasi (Mo‘ynoq, Chimboy, Qo‘ng‘irot va Nukus) tumanlari hududida hosil bo‘ladigan chang va qum bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish hududlarini modelini ishlab chiqish olingan.

Tadqiqot predmeti Qum-chang bo‘ronlarining tarqalish modelini ishlab chiqish orqali hosil bo‘layotgan chang va qum bo‘ronlarining shakllanish sharoitlari va tarqalish hududlarini aniqlash usullari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida aerodinamika, aerofizika, ekologiyada umum qabul qilingan usulblardan, statistik tahlil usullari - Mann-Kendall, aerologik usullar, geografik axborot tizimlari (GAT) eksperimentlarini matematik rejalashtirish va dala tadqiqot usullari hamda mavjud me‘yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Orolbo‘yi mintaqasida harorat va havoning nisbiy namliklarini hisobga olgan holda atmosferaning meteorologik salohiyati ko‘rsatkichi (AMSK) asosida qum-chang bo‘ronlarini hosil bo‘lish tendensiyalari Mo‘ynoqda 0,77 ga, Qo‘ng‘irotga 0,71 ga va Nukus shahrida 0,64 ga tengligi aniqlangan;

meteorologiyaning oxirgi 50 yillik ma’lumotlari va tuproq-iqlim sharoitlari, zarrachalarning mexanik tarkibini inobatga olgan holda qum-chang bo‘ronlarining shakllanishi va tarqalishi hisoblab chiqilgan;

Orolbo‘yi mintaqasining meteorologik parametrlari, tuproq tarkibi, geologik sharoitlarni inobatga olgan holda qum-chang zarrachalarni tarqalish traektoriyasi aniqlangan;

Aerologik jarayonlar, shamol yo‘nalishi va tezligini inobatga olgan holda Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarini tarqalish konsentrasiyasi modeli ishlab chiqilgan;

HYSPLIT dasturi asosida Orolbo‘yi mintaqasida bo‘ron paytida qum-chang zarrachalarini atmosferadagi konsentratsiyasi 150-170 g/m³ gacha bo‘lishi modellashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qum-chang bo‘ronlarining hosil bo‘lishida havo harorati va namligini inobatga olgan holda hosil bo‘lish sharoitlari aniqlangan;

ob-havo sharoitlari va qum-chang bo‘ronlarining paydo bo‘lishi va tarqalishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa ekologik omillar va iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda aniqlangan;

Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarining tarqalishini hisoblashda shamol tezligi va yo‘nalishi, harorat, namlik va yog‘ingarchilik, havo sifati, tuproq turi, yer relyeflarini inobatga olgan holda aniqlangan.

Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlari paydo bo‘lishi va tarqalishini modellashtirish bo‘yicha dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ishlanmalarning mexanika qonunlariga mosligi va sinalgan matematik usullardan foydalanilganligi, hisoblangan qiymatlarning tajribada olingan qiymatlar bilan qiyosiy solishtirilganda bir-biriga yaqinligi va tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati: Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarining tarqalishini aerologik jarayonlarni inobatga olib hududlarning maydon bo‘yicha tarqalish konsentratsiyasi modellashtirilgan. Orolbo‘yi mintaqasining meteorologik parametrlar, tuproq tarkibi, geologik sharoitlarni inobatga olgan holda qum, chang zarrachalarni tarqalish traektoriyasi modellashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarini yuz berish sharoitlari baholanganligi, qum-chang bo‘ronlarini hosil bo‘lishida havo harorati va namligini inobatga olgan holda hosil bo‘lish sharoitlari aniqlanganligi, iqlim sharoitlari va qum-chang bo‘ronlarining paydo bo‘lishi va tarqalishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa ekologik omillarning o‘zgarishini hisobga olgan holda aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarining shakllanishi va tarqalishini modellashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Orolbo‘yi mintaqasining meteorologik parametrlari, tuproq tarkibi, geologik sharoitlarni inobatga olgan holda chang, qum zarrachalarni tarqalish traektoriyasi modellashtirilgan va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq, Nukus, Qo‘ng‘irot va Chimboy tumanlariga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi 01/18–2573-son ma’lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yi hududida qum-changlarni harakat traektoriyasini aniqlash imkonini bergan;

Qum-chang bo‘ronlarini HYSPLIT dasturi orqali hisoblashda Orolbo‘yi mintaqasida hosil bo‘lish potentsiali aniqlangan va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq, Nukus, Qo‘ng‘irot va Chimboy tumanlariga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi 01/18–2573-son ma’lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yi mintaqasi qum-chang bo‘ronlarini hududlarda hosil bo‘lishi

bashorat qilinish orqali atrof-muhitga ta'sirlarni baholash va kelajakda muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatlari yaratilgan;

Orolbo'yi mintaqasida qum-chang bo'ronlarining tarqalishini aerologik jarayonlarni inobatga olib hududlarda maydon bo'yicha tarqalish konsentratsiyasi modellashtirilgan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq, Nukus, Chimboy va Qo'ng'iro't tumanlariga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 31-iyuldagi 01/18–2573-son ma'lumotnomasi). Natijada Orol mintaqasida qum-chang zarrachalarini tarqalishi, ya'ni 10-170 mg/m³ gacha bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 8 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning O'zbekiston va jahonda zaruriyati hamda dolzarbligi asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilib, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari asoslangan, ishning aprobatsiyasi va natijalarining joriy qilinishi, hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Qum-chang bo'ronlarining shakllanish sharoitlari bo'yicha izlanishlar tahlili**» deb nomlangan **birinchi** bobida qum-chang bo'ronlarini hosil bo'lish sharoitlari va tarqalishiga doir nazariy va amaliy izlanishlarning analitik tahlili keltirilgan.

Atmosferadagi chang va qum bo'ronlari - bu tabiiy meteorologik hodisa, ushbu hodisani yo'q qilish mumkin emas. Biroq, ushbu chang va qum bo'ron hodisalariga olib keladigan ekologik omillarini bilish hamda tushunish orqali biz ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirishimiz mumkin.

Hududlarda qum-chang bo'ronlarining paydo bo'lishi, tarqalishi va ifloslantiruvchi zarralarning tarqalishining eng muhim omili iqlimdir. Qum-chang bo'ronlarining paydo bo'lishi issiqlik, yomg'ir, shamolning hosil bo'lish sharoitlari, bosim, havoning namligi va quyosh radiatsiyasi kabi turli xil iqlim elementlari bilan bevosita bog'langan holda hosil bo'ladi. Yuqoridagi holatlarning paydo bo'lishi natijasida hududlarda qurg'oqchilik darajasi kuchayib, haroratning

o'zgarishiga, shamol tezligining o'zgarishiga va shamol yo'nalishining ortib borishiga va qum-chang bo'ronlarining ortib borishiga olib keladi.

Qum-chang bo'ronlarini paydo bo'lishi tabiiy iqlimning barcha jihatlarining harakatlantiruvchi kuchi atmosfera bosimidir. Shamollar atmosfera bosimining turli hududlarida yoki yuqori atmosfera qatlamlarida farqlanishi natijasida hosil bo'ladi. Shamol yerdagi yoki atmosferaning yuqori qatlamlarida atmosfera bosimi farqlarini aniqlash uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u chang va qum bo'ronlari harakatining eng kuchli qo'zg'atuvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Chang va qum bo'ronlarini o'rganish jarayonida shamol harakati momentini tahlil qilish kerak, chunki shamol ifloslantiruvchi changni o'z yo'nalish gradusi bo'yicha olib yuradigan va tarqatadigan energiya manbaidir.

Qum-chang bo'ronlarini hosil bo'lish shart sharoitlarini aniqlashda A.M.Vadie, M.Mansoor, S.Ch.Ponnappa, X.Fengjin, Z.Caiping, L.Yaoming, H.Shen, J.Abuduwaili, A.Samat, M.Long, G.Viggs, S.Lohara, J.Wegerdt, M.Joost, I.Small, R.Hubbard, Han Zhiwen, Wang Tao, Sun Qingwei, Dong Zhibao, Vang Xunming, N.Ravshanov, B.E.Nishonov, A.R.Axmedova., V.A.Duxovniy, X.Hailiang, Z.Xinfeng, L.Xinghong, A.A.Samania, S.Dadfarb, A.Shahbazi, Yaping Shao, Eunjoo Jung, L.M.Leslie, P.J.Prakash, G.Stenchikov, M.L.Arushanov, L.Yu.Shardakova, B.Telemuratova va boshqa olimlar ishlarining tahlilidan ma'lumki, qum-changlar mavjud bo'lgan atmosfera havosida ma'lum bir sharoitlar uchun ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ma'lum bir ijobiy natijalarga erishilgan.

Shu boisdan qum-chang bo'ronlarini shakllanish sharoitlarini baholashda atmosfera havosining temperaturasi, shamol tezligi va yo'nalishi, havoning nisbiy namliklarini aniqlash muhimligi asoslangan.

Olib borilgan tahlillar asosida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning «**Qum-chang bo'ronlarini tarqalish modellari**» deb nomlangan **ikkinchi** bobida atmosfera havosida ikki fazali havo oqimi sifatida qarab, havoda qum-chang zarrachalarini kinematik va dinamik strukturasi ifodalovchi turli xil modellar va hisoblash usullarini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Hozirgi kunda, yuqorida bayon etilgandek, bugungi zamonaviy dunyoda atmosferaning shu jumladan quyi troposferadagi chang va qum miqdorining konsentratsiyasi ko'plab jarayonlarga ta'sir qiladi. Xususan inson salomatligi, muhandislik va boshqa kommunikatsiya tizimlari, hayvonot va nobotatning shakllanish sharoitlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda atmosferadagi fizik va kimyoviy jarayonlar nobarqaror va qonuniyatlarini ilg'ash, tushunish murakkabdir.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining taqsimlanishini bashorat qilish muammosini hal qilish uchun tadqiqotchilar odatda matematik vositalardan foydalanadilar. Atmosferada ifloslantiruvchi moddalarning tashish va tarqalishi jarayonlarini modellashtirish ob-havo va iqlim sharoiti, tuproq


eroziyasi, aerazol zarralarining fizik-mexanik xususiyatlari va boshqalar kabi turli omillarni hal qilishni talab qiladi.

Obyekt yoki hududdan bo‘ladigan chang emissiyasini modellashtirish natijalari mintaqaviy havo sifati ko‘rsatkichlaridan oshmasligi yoki havo sifatini yanada yomonlashtirmasligini aniqlashtirishini ta’minlash uchun ishlatiladi.

Shu sababli, modellashtirish usuli obyekt chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini ham, ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishini ham to‘g‘ri baholashi muhimdir.

Ifloslantiruvchi dispersiyani modellashtirish matematik algoritmlar yordamida yakunlanadi. Amaldagi bir nechta asosiy matematik algoritmlar mavjud: Hozirgi kunda zamonaviy dasturlash asosida bir qancha kompyuter modellari yaratilgan. Ushbu modellarni asosiga B.Launder, B.Sharma modeli, D.Uilkoks modeli, L.Reyli va D.Teylor, RANS-Reynolds, R.Richtmyer va E.Meshkov usullari yotadi. Odatda eng ko‘p ishlatiladigan Boks modeli, Gauss modeli, Eyler modeli va Lagranj modellaridir.

Ushbu to‘rtta matematik model havo dispersiyasini modellashtirish uchun ishlatiladigan asosiy yondashuvlardir. Ushbu tenglamalarga asoslangan ko‘plab o‘zgarishlar mavjud. Ba’zi o‘zgarishlar shamol yo‘nalishi, shamol tezligi va turbulentslikning tasodifiyligini ifodalash uchun statistik funksiyalarni qo‘shadi; boshqalar esa xos manba parametrlarini kiritishni o‘z ichiga oladi. Kompyuterlar orqali mavjud bo‘lgan hisoblash quvvati ortganligi sababli, modellar yanada murakkab va xilma-xil bo‘lib bormoqda. Bu havo dispersiyasi uchun juda ko‘p kompyuter modellarini yaratishga olib keldi.



1-jadval. Atmosferada zararli (qum, chang, gaz) ifloslantiruvchi moddalarning tarqalish jarayonini modellashtirish uchun umumiy kompyuter dasturlari.

Dissertatsiyaning «**Tabiiy dala sharoitida olib borilgan tadqiqotlar tahlili**» deb nomlangan **uchinchi** bobida Orolbo‘yi mintaqasidagi statsionar va nostatsionar manbalarda atmosfera havosidagi qum-chang zarrachalarini miqdori bo‘yicha izlanishlar natijalari keltirilgan.


Orol dengizining janubi-sharqiy qirg'og'i quruq kamarining kengligi 30-50 km ga yetdi. Tadqiqot davomida 1975-yildagi birinchi hisob-kitoblariga ko'ra tashilgan chang hajmining yiliga o'rtacha 45 million tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1990-yilda bu ko'rsatkich ikki barobarga, yani 90 million t/yil oshganligi aniqlandi.

Orolbo'yi hududlarida va past bosimli shamolda havo kemalarini kuzatish paytida qum-chang xususiyatlarini o'lchash tadqiqotlari kelajakdagi iqlim o'zgarishini bashorat qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan radiatsiyaviy ta'sirlarning yangi baholariga olib keladi. Orol dengizining qurib borishi va haroratning keskin ko'tarilishi hududning boy ekotizimlariga katta zarar yetkazdi. Bunda yer osti suvlari sathining pasayishi natijasida dengizga oqib tushadigan daryolarning qirg'oqlari juda katta zarar ko'rganligi, bu esa hudud cho'llanishining kengayishiga olib kelgan.


Markaziy Osiyodagi qum-chang bo'ronlari qurg'oqchil va qurg'oqchilikka xos tabiiy iqlim hodisasidir. Hududdagi chang va qum bo'ronlari bo'yicha tizimli kuzatuvlar uchun meteorologik stansiyalar o'z faoliyatini 1936-yildan beri tizimli ravishda olib bormoqda. Bu kuzatishlar davomiyligi, intensivligi va gorizontol ko'rinishini vizual baholash bilan cheklangan. Orolbo'yi mintaqasidagi chang va qum bo'ronlarining atrof-muhitga ko'rsatayotgan zararli ta'sirlari va tarqalish areallarini umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqotlar ilk bor 1960-1970-yillarda olib borilgan. Hozirgi vaqtda Orol dengizning qurigan ochiq tubi yaqin bo'lgan qo'shni hududlarga tarkibida zaharli ifloslantiruvchi tuzlar va kimyoviy moddalarning "tarqatuvchisi" ga aylandi.

Orolbo'yi hududidan Orol dengizining qurigan tubigacha bo'lgan qismida iqlim omillaridan foydalanish va yer qoplamini tahlil qilish uchun bir necha bosqichdagi tadqiqotlarni talab qildi. Olib borilgan tadqiqot metodologiyasining birinchi qadami sifatida, iqlim omillari ma'lumotlarini oldindan qayta ishlash va atmosfera qobig'idan olingan ma'lumotlarni tuzatishlar kiritildi. Bu esa haritalashning sifati va aniqligini oshirishga yordam berdi. Orolbo'yi hududidagi asosiy (Nukus, Qo'ng'iroq, Chimboy va Mo'ynoq) stansiyalari ma'lumotlari asosida havo harorati, yog'ingarchilik, namlik va shamol kabi meteorologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi tahlil qilindi.

Orolbo'yi mintaqasida meteorologik stansiyalarning 1970-yildan 2023-yillargacha bo'lgan ma'lumotlari olinib, tahlil qilindi (1,2-rasm). Turli xil karakterli joylardan 2020-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrlarda dala izlanishlari olib borilgan.




1-rasm. Tadqiqot obe'klari




2-rasm. Dala tadqiqotlari olib borilgan hududlar

Olingan ma'lumotlarni statistik tahlili. Nukus, Chimboy, Qo'ng'irof va Mo'ynoq meteorologik stansiyalarida 1973-2023-yillar oralig'ida har oy uchun o'rtacha yog'ingarchilik qiymatlari bo'yicha Man-Kendall trend tahlili o'tkazildi. Har bir oy uchun Kendall tau koeffitsienti va p-qiymatlar quyida keltirilgan.



3 - rasm. Nukus meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko'p yillik o'rtacha yog'ingarchilik qiymatlari



4 - rasm. Qo'ng'irof meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko'p yillik o'rtacha yog'ingarchilik qiymatlari

Chimboy stansiyasidagi tahlil natijalari ko'p oylar uchun sezilarli trendlar mavjud emasligini ko'rsatmoqda. Bu, ehtimol, yog'ingarchilikning yillar davomida nisbatan barqaror bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq, ba'zi oylarda zaif ijobiy yoki salbiy trendlar kuzatilgan, ammo ular statistik jihatdan ahamiyatli emas.


Ushbu natijalar mahalliy iqlim sharoitlari va yog'ingarchilik tendentsiyalarini chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Yog'ingarchilikdagi o'zgarishlar qishloq xo'jaligi, suv resurslari va boshqa sohalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ushbu o'zgarishlarga moslashish va ularga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir.

Tahlil natijalari ko‘plab oylik o‘rtacha haroratlarda sezilarli trendlar mavjudligini ko‘rsatdi.


- Yanvar: Yanvar uchun tau qiymati ijobiy (0.141789) bo‘lsa-da, u statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p=0.143579$), bu yillar davomida harorat o‘zgarishlarida aniq trend yo‘qligini ko‘rsatadi.

- Fevraldan oktyabrgacha: Ushbu oylarda statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy trendlar kuzatildi, bu oylik o‘rtacha haroratlarning oshishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mart ($\tau=0.376828$, $p=0.000103$), may ($\tau=0.404917$, $p=0.000032$) va iyun ($\tau=0.412859$, $p=0.000023$) oylarida trendlar kuchli bo‘lib, bu oylarda barqaror isish tendentsiyasini ko‘rsatmoqda.

- Noyabr va dekabr: Noyabr va dekabr oylarida sezilarli trendlar kuzatilmadi, tau qiymatlari nolga yaqin (-0.024487 va -0.074863) va p-qiymatlar yuqori (0.801067 va 0.440154). Bu oylar davomida haroratlarning nisbatan barqaror bo‘lganligini ko‘rsatadi.



5 - rasm. Qo‘ng‘irot meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko‘p yillik o‘rtacha havo harorati qiymatlari



6 - rasm. Nukus meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko‘p yillik o‘rtacha havo harorati qiymatlari

Ushbu natijalar Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoqda bahor va yoz oylarida umumiy isish tendentsiyasini ko‘rsatadi, bu global va mintaqaviy iqlim o‘zgarishlari bilan mos keladi. Qish oylarida (noyabrdan yanvargacha) sezilarli trendlarning yo‘qligi qishki haroratlarning katta o‘zgaruvchanligi yoki bu oylarda ta‘sir ko‘rsatadigan boshqa iqlim omillari bilan izohlanishi mumkin.

Bahor va yoz oylarida sezilarli ijobiy trendlarning kuzatilishi mahalliy qishloq xo‘jaligi, suv resurslari va ekotizim dinamikasiga muhim ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Haroratning oshishi ekinlar hosildorligi, suv mavjudligi va o‘simliklar va hayvonlar turlarining tarqalishiga ta‘sir qilishi mumkin. Shuningdek, kuzatilgan isish tendentsiyasi issiq to‘lqinlarining chastotasi va intensivligini oshirishi mumkin, bu esa inson salomatligi va infratuzilmaga ta‘sir qiladi.

Kelgusi tadqiqotlar ushbu trendlarning ortidagi omillarni aniqlashga, masalan, atmosfera havosini o‘zgarishi, yerdan foydalanishdagi o‘zgarishlar yoki

antropogen ta'sirlarni o'rganishga qaratilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu harorat tendentsiyalarining mahalliy jamiyatlar va ekotizimlarga ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Mann-Kendall trend tahlili Qo'ng'iroq va Mo'ynoqda bahor va yoz oylarida o'rtacha oylik haroratlarda sezilarli isish tendentsiyalarini aniqladi. Ushbu natijalar mintaqada iqlim o'zgarishlarining ta'sirini tushunish va ularga moslashish hamda ularni yumshatish strategiyalarini ishlab chiqish uchun monitoring va tadqiqotlarni davom ettirish muhimligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning «**Orolbo'yi mintaqasida chang va qumli bo'ronlar yuz berishining shart sharoitlarini baholash**» deb nomlangan **to'rtinchi** bobida qum-chang bo'ronlarining shakllanishi bo'yicha turli hil omillar asosida sodir bo'lishi bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Atmosfera ifloslanishining mumkin bo'lgan darajasini belgilaydigan tabiiy omillarning kombinatsiyasi atmosfera ifloslanishining meteorologik va iqlimiy potentsiali, sirt va ko'tarilgan inversiyalarning chastotasi, ularning kuchi, intensivligi, aralashtirish qatlamining balandligi, turli balandliklarda sokin qatlamlar (shtil), kuchli yog'ingarchilik, tuman, havoning turg'unlik chastotasi bilan tavsiflanadi. Bu omillar (qum, chang, gaz, aerazol va boshq.) tashlanmalarning tarqalishini keskin sekinlashtirishi va atmosfera havosining haddan tashqari mahalliy ifloslanishiga, mintaqa ustida gaz-tutun "do'ppisi"ning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun birinchi navbatda atmosfera havosidagi zararli zarrachalar miqdorini va havoning meteorologik salohiyatini aniqlash lozim bo'ladi.

Qum-changning atmosferada tarqalishi potentsialining iqlimiy omillarida Orol dengizi bo'yida atmosferaning ifloslanish darajasini shakllantirishda chiqindilarning o'tkazilishi va tarqalishini belgilovchi meteorologik sharoitlar muhim rol o'ynaydi.

Atmosfera havosiga qum-chang zarrachalarining maksimal yuklarni baholashning ishonchli mezonni atmosferaning meteorologik salohiyati ko'rsatkichi (AMSK) hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich meteorologik omillar majmuasining funksiyasini ifodalab, ular bir holatda atmosferada zararli aralashmalarning to'planishiga, ikkinchida esa atmosfera havosining o'z-o'zini tozalashni bildiradi:

$$AMCK = \frac{\partial_{\text{шшТ}} + \partial_{\text{ТТК}}}{\partial_{\text{ЭТ}} + \partial_{\text{шТ}}}$$

Bu yerda: $\partial_{\text{шшТ}}$ - Sokin xavo (shtil) holatining takrorlanishi, %; $\partial_{\text{ТТК}}$ - tumanli kunlarning takrorlanishi, %; $\partial_{\text{ЭТ}}$ - Yog'ingarchilik kunlarining takrorlanishi, %; $\partial_{\text{шТ}}$ - Shamol yo'nalishi 6 m/sek oshiq bo'lgan kunlar takrorlanishi, %.

AMSK ni hudud uchun hisoblab topish uchun Orol dengizi bo'yida joylashgan Uzgidromet agentligiga qarashli meteorologik stansiyalarda 1973-2023-yillarda kuzatilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

Olingan ma'lumotlar tahlil natijalariga ko'ra Mo'ynoqda kuzatilgan meteoko'rsatkichlar bo'yicha AMSK ko'rsatkichi 0,77 ga teng bo'lgan. Qo'ng'irotda bu ko'rsatkich 0,71 ga va Nukus shahrida 0,64 ga teng bo'lgan.

Shunday qilib, AMSK ko'rsatkichining hisobiy miqdorlari ham qum-chang emessiyasining Orol dengizining qurigan tubidan shakllanish imkoniyatlari yuqoriligini ko'rsatdi.

Quyidagi jadvalda turli gradiatsiyadagi havo harorati sharoitida yuz bergan qumli bo'ronlarning ulushi keltirilgan.

2-jadval.

Havo harorati gradiatsiyasi sharoitida kuzatilgan qumli bo'ronlarning ulushi.

Havo harorati gradiatsiyasi	Mo'ynoq		Qo'ng'irotda		Chimboy		Nukus	
	Kunlar	%	Kunlar	%	Kunlar	%	Kunlar	%
0-15	2.4	11.4	3.1	15.8	2.6	17.8	2.2	15.2
15-30	6.7	31.8	5.4	27.6	6.7	45.9	5.9	40.7
30-40	8.6	40.8	8.2	41.8	4.4	30.1	5.3	36.6
40 dan yuqori	3.4	16.1	2.9	14.8	0.9	6.2	1.1	7.6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki qum-chang bo'ronlarining yuz berishi, asosan havo harorati Orol dengiziga yaqin mintaqalarda +15-30 gradus bo'lganda, dengizdan uzoqlashganda esa +30-40 gradus oralig'larida kuzatiladi.

Hususan, Mo'ynoq shahrida kuzatilgan qumli bo'ronlarning 40,8 foizi havo harorati +30-40 gradus bo'lganda kuzatilgan. Bunday tendensiya Qo'ng'irotda ham saqlanib qolib, 41,8 % ni tashkil qilgan.

Orol dengizidan uzoqlashgach Chimboy shahrida 45,9 % holatda havo harorati +15-30 gradus oralig'ida bo'lgan. Bu tendensiya esa Nukus shahrida saqlanib qolib 40,7% ni tashkil qilgan.

Qum-chang bo'ronlarning vujudga kelishidagi yana bir asosiy omillardan biri bu havoning nisbiy namligi hisoblanadi.


Quyidagi jadvalda Orolbo'yi mintaqasida kuzatilgan qumli bo'ronlar vaqtida havoning nisbiy namligi gradiatsiyasi keltirilgan.

3-jadval.

Havoning nisbiy namligi gradiatsiyasi sharoitida kuzatilgan qum-chang bo'ronlarining ulushi.

Nisbiy namlik gradiatsiyasi	Mo'ynoq		Qo'ng'irotda		Chimboy		Nukus	
	Kunlar	%	Kunlar	%	Kunlar	%	Kunlar	%
20% dan past	4.6	21.8	4.2	21.4	2.8	19.2	2.8	19.3
20-30%	4.8	22.7	4.4	22.4	3.7	25.3	3.6	24.8
30-50%	6.7	31.8	6.2	31.6	4.9	33.6	4.9	33.8
50-60%	4.8	22.7	4.4	22.4	2.8	19.2	2.8	19.3
60% dan yuqori	0.2	0.9	0.4	2.0	0.4	2.7	0.4	2.8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki havo namligi bilan qum-chang bo'ronlarining yuz berishi o'rtasidagi bog'liqlik ancha murakkab. 20-60% gacha bo'lgan nisbiy namlik asosan yilning kech bahor va yoz mavsumida kuzatilgan. Aynan shu davrlarda qumli bo'ronlar kuzatiladi. Havoning nisbiy namligi 60% dan yuqori bo'ladigan vaqt kech kuz va qishga to'g'ri keladi. Bu vaqtga kelib qumli bo'ronlarning bo'lish intensivligi pasayadi.



7-rasm. Orolbo'yi hududlarida shamolning tarqalish tezligi

Hudud uchun changli va qumli bo'ronlarning takrorlanishi ma'lumotlari to'rtta meteorologik stansiyalarda keyingi 50 yil davomida kuzatilgan. Ushbu ma'lumotlar tahlili qum bo'ronlarining, asosan bahor va yoz oylarida sinoptik jarayonlarning faol ta'sirida yuz berishi aniqlandi.

Ekstremal gidrometeorologik ma'lumotlarning istiqbolli bashoratlari Gumbelning logorafimik taqsimoti qonunlariga bo'ysunuvi ta'sirida hisoblab topildi.

**Orolbo‘yi mintaqasida qum-chang bo‘ronlarining takrorlanishi prognozlari
(miqdorlar qum-chang bo‘ronlari yuz beradigan kunda)**

Qaytish davri,yil	Yillik oshib ketish ehtimoli, %	Gumbel Factori EV	Qum-chang bo‘ronlari soni			
			Mo‘ynoq	Qo‘ng‘irot	Chimboy	Nukus
2	50	0.4	8.1	3.7	5.8	6.5
5	20	1.5	12.2	8.7	8.6	9.0
10	10	2.3	15.1	12.4	10.6	10.8
20	5	3	17.7	15.5	12.3	12.4
50	2	3.9	21.1	19.6	14.6	14.5
100	1	4.6	23.7	22.8	16.3	16.1
200	0.5	5.3	26.3	26.0	18.1	17.7
500	0.2	6.2	29.6	30.0	20.3	19.8
1000	0.1	6.9	32.2	33.2	22.1	21.4

Hisoblashlar istiqbolda Mo‘ynoq shahri misolida har ikki yilda qumli bo‘ronlarning yiliga yuz berishi 8,1 kuni tashkil qilishini ko‘rsatdi. O‘sib borishi nuqtayi nazariga tayanilsa har 50 yilda 365 kunning 21.1 kuni qumli bo‘ronlar bilan o‘tadi. Bu ko‘rsatkichning har 100 yilda takrorlanishi 23.7 kunga to‘g‘ri keladi.

